



BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI KASBIY KREATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Muallif: Begmatova Nasiba Mengnarovna ¹

Affilyatsiya: O'zbekiston Milliy universiteti mustaqil tadqiqotchisi ¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14504754>

ANNOTATSIYA

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalana olish hozirgi davr ta'limida dolzarb masala hisoblanadi. Maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarini axborot kommunikatsion kompetentligini rivojlantirish masalalari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: kommunikativ komponent, kognitiv komponent, motivatsion qiymat komponenti, texnik va texnologik komponent.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar davrida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitish, shu bilan birga, ta'lim oluvchilarni ularning murakkab olamiga olib kirish masalalari dolzarb bo'lib, davr talabidir.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'qitishda, ularni kreativ jarayonini tashkil etishda yaxlit bir butun GEShtalt tuzilmadan yaxshiroq, qulayroq va eng maqbul variantini yaratish maqsadida foydalanish imkonini beradi. Bu borada boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy pedagogik

kompetentligini rivojlantirishda o'qituvchilarning qreativligini oshirishda quyidagi qarashlarni nazarda tutiish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

innovatsion yondashuvga ko'ra, kreativlik oxirgi natijaning yangiligiga olib boradi; axloqiy nazariyalar – bu yondashuv ijodkorni kreativlik orqali o'zini-o'zi namoyon etishi ekspressiya (tashqarida ifodalash) sifatida talqin etiladi;

psixoanalitik (dinamik) yondashuvga ko'ra kreativlik ong tarkibidagi “u”, “men” va “super men” qismlarining o'zaro munosabatidir.

Muammoli yondashuvga ko'ra, turli xil vazifalarni yechishning o'ziga xos usuli deb qaraladi. Ana shu yondashuv vakillaridan biri Gilforddir. Uning fikriga ko'ra, “..kreativlikda divergent tafakkur bo'lishi kerak” degan fikrni ilgari suradi. Nazarimizda ushbu qarashlar boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy pedagogik kompetentligini rivojlantirish o'ziga xos komponentlarini izchil amalga oshirishning yuqori darajasi sifatida qarash mumkin.

Hech bir guruhga kiritib bo'lmaydigan, yoki aniq yo'nalishga mos bo'lmagan guruh. Kreativlik P.Torrens tomonidan jarayon yoki faoliyat sifatida talqin etiladi. Kreativlik muammolarga axborotlar yetishimasligiga, ularning nomuvofiqligiga va mantiqiy emasligiga bo'lgan sezuvchanlikning namoyon bo'lish jarayonidir. Kreativlik S.I.Makshanov va N.Yu.Xryashevalar tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra, xulq-atvor va

tafakkurning nostandartligi va konstruktiv faoliyatga qobiliyatdir degan farazlarni ilgari suradi [1.47].

Amerikalik olim Gilford tafakkurni ikki turga – konvergent va divergent tafakkurga ajratgan. Gilford tomonidan kreativlikni ifodalaydigan 16 xil intellektual qobiliyatlar ko'rsatib o'tilgan. Bular qo'yidagilardir: semantik egiluvchanlik; obrazli moslashuvchan egiluvchanlik; semantik tarqoq egiluvchanlik; originallik; qiziquvchanlik; farazlarni ishlab chiqish qobiliyati; irrelevantlik (qo'zg'atuvchiga reaksiyalarni mantiqiy bog'lanmaganligi); xayolparastlik (muammoning yechimini real hayotdan uzoqligi, reaksiya va stimul o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishning o'ziga xosligi) [1.72].

Xuddi shunday MDH olimlaridan Ye. Ye. Tunik kreativlikning quyidagi mezonlarini aniqlagan. Bular:

- muammoga nisbatan sezgirlik;
- sintez qila olish qobiliyati;
- o'xshash va tafovutlarni aniqlash qobiliyati;
- yetishimayotgan qismlarni qaytadan tiklash qobiliyati;
- bashorat qila olish qobiliyati;
- divergent tafakkur. [3.28.]

Abraham Maslou kreativlikni talant kreativligi va o'zini-o'zi dolzarblashtirish kreativligiga ajratgan. O'zini o'zi dolzarblashtirish kreativligi idrok qila olish, o'zini ifodalash "ikkilamchi soddalik", noma'lum narsalarga intilishda namoyon bo'ladi. Kreativlik va intellekt o'rtasidagi munosabat ham ko'plab olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Ular o'rtasidagi munosabatni ifodalashga 3 xil yondashish mumkin:

1. Ijodiy qobiliyat intellektga bog'liq bo'lmagan mustaqil omildir (Gilford, Teylor, Ponomoyov);

2. Intellektning yuqori darajasi ijodiy qobiliyatlarni ham yuqori bo'lishini ta'minlaydi (bu fikrni Ayzenk qo'llagan);

3. Alohida ijodiy qobiliyatlar mavjud emas deb qaraydigan yondashuv (Veksler, Termen, Ferbert).

Xorijiy pedagoglar, xususan, Patti Drapeauning fikricha, bir shaxsning, ayniqsa, o'qituvchining kreativligi boshqa (talaba)larni ijodiy jarayonni tashkil etishga ruhlantiradi [3.47].

Kreativlikni irsiyat bilan bog'liqligi muammosi R. Nikols, Plomin, Grigorenko, Kochubey, Libinlar tomonidan o'rganilgan bo'lib, kreativlik irsiy, genetik xususiyatlar bilan bog'liq emas degan fikrni ilgari suradilar. Bola taraqqiyotining ayrim davrlarida kreativlikning pasayishi, ayrim davrlarda esa yuqoriga ko'tarilishi mumkinligini bildirib, ularni davrlariga kelsak: 6 yoshdan -11 yoshgacha ko'tarilish, 11 yoshdan -15; yoshgacha pasayish, 15 yoshdan – 25 yoshgacha ko'tarilish, 25 yoshdan - 30 yoshgacha pasayish, 30 yoshdan – 45 yoshgacha ko'tarilish.

Verbal kreativlik ayollarda, noverbal kreativlik erkaklarda yuqori bo'ladi. O'ng yarim shar kuchli bo'lsa, verbal obrazli kreativlik ustun, chap yarim shar kuchli bo'lsa mantiqiy kreativlik ustun bo'ladi. Bunda, ularning xatti-harakatlarida tolerantlik-bag'rikenglik kabi xis tuyg'ular yuqori bo'lidi. Kreativlik haqidagi nazariyalarga ko'ra shaxs kreativligi boshqa aqliy jarayonlarga xos jihatlar bilan bir qatorda farq qiluvchi xususiyatlarga ham ega ekanligidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, kreativlik turli yosh bosqichlarida rang-barang sifat va taraqqiyot darajasiga ega bo'ladi. Maktabgacha, kichik maktab yoshi, o'smirlik yoshi va o'spirinlik davrida kreativlikning rivojlanishi o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Kreativ tafakkurni shakllanishi bilimga qiziquvchanlik va tasavurning kengligi bilan bog'liq. Kreativ qobiliyatning shakllanishi tafakkurdagi originallik, tezlik kabi sifatlari bilan belgilanadi. Mustaqil fikrlashning shakllanishi kreativ qobiliyatning rivojlanishning asosiy sharti hisoblanadi. O'quv jarayonida berilayotgan murakkab topishiriqlarni bajarish jarayonida talabalarda kreativ qobiliyat rivojlanib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Gilford Dj. Tri storoniy intellekta // Psixologiya myshleniya. M.: Progress, 2009.

Guilford J. P., Hoepfner R. The analysis of intelligence. N.Y., 2011.

Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). - Alexandria - Virginia, USA: ASCD, 2014.

